

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA BYUDJET TAQCHILLIGI: MUOMMOLAR VA YECHIMLAR

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti MMT-92 guruh talabasi
Eshnazarov Shahriyor Dilmurod o'g'li

Annotatsiya. Ushbu tezisdagi O'zbekistondagi byudjet taqchilligining hozirgi holatini tahlil qilishda foydali bo'lishi mumkin. O'zbekiston byudjet taqchilligi haqida nazariy va tahliliy ma'lumotlar keltirib o'tilgan va kelgusi yillar uchun ham ehtimoliy statistik ma'lumotlar bilan boyitilgan.

Kalit so'zlar: Byudjet, taqchillik, yordam, barqarorlik, xalqaro moliyaviy tashkilot, o'sish, ijtimoiy.

Annotation. This thesis can be useful in analyzing the current state of the budget deficit in Uzbekistan. Theoretical and analytical information about the budget deficit of Uzbekistan has been cited and enriched with probable statistics for the coming years as well.

Keywords: budget, deficit, assistance, stability, international financial organization, growth, social.

Аннотация. Данный тезис может быть полезен при анализе текущего состояния дефицита бюджета в Узбекистане. Приведены теоретические и аналитические данные о бюджетном дефиците Узбекистана и обогащены вероятностными статистическими данными на ближайшие годы.

Ключевые слова: бюджет, дефицит, помощь, стабильность, Международная финансовая организация, рост, социальная.

Byudjet taqchilligi – bu davlat yoki tashkilotning daromadlari va xarajatlari o'rtasidagi muvozanatning buzilishi natijasida yuzaga keladigan holatdir. Agar xarajatlar daromadlardan oshsa, bu taqchillik deb ataladi. Byudjet taqchilligi iqtisodiy tizimda bir qator salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin, jumladan:¹

¹ <https://lex.uz> O'zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksidan olingan va muallif tomonidan o'zgartirilgan

1. Moliya bozorida ishonchning pasayishi: Davlat tomonidan qarz olish zarurati investorlarda noaniqlikni keltirib chiqarishi mumkin.

2. Inflyatsiya: Taqchillikni qoplash uchun pul bosish inflyatsiyani oshirishi mumkin.

3. Iqtisodiy o'sishga salbiy ta'sir: Davlat xarajatlari va investitsiyalarni qisqartirish iqtisodiy o'sishni sekinlashtirishi mumkin.

4. Ijtimoiy xizmatlar sifatining pasayishi: Ijtimoiy dasturlar va xizmatlar uchun mablag'larning kamayishi aholi farovonligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Byudjet taqchilligini bartaraf etish uchun davlatlar turli usullarni qo'llashadi, jumladan:

- Xarajatlarni qisqartirish
- Daromadlarni oshirish (masalan, soliq siyosatini kuchaytirish)
- Moliya bozorida qarz olish

Taqchillik va uning oqibatlarini tushunish iqtisodiyotning barqarorligi va rivojlanishini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

1. Moliya siyosati: O'zbekistonning moliya siyosati iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish va ijtimoiy dasturlarni moliyalashtirishga qaratilgan. Biroq, byudjet taqchilligi ko'payishi iqtisodiy barqarorlikka tahdid solmoqda.²

2. Byudjet taqchilligining sabablari:

- Kengaytirilgan ijtimoiy xarajatlar.
- Infratuzilma loyihalariga katta investitsiyalar.
- Tashqi qarzning oshishi va xalqaro moliya tashkilotlariga bog'liqlik.

3. Statistika ko'rsatkichlar: Byudjet taqchilligi foizi, davlat qarzi darajasi, daromadlar va xarajatlar balansini tahlil qilish.

4. Iqtisodiy o'sishga ta'siri: Byudjet taqchilligi iqtisodiy o'sish sur'atlarini sekinlashtirishi mumkin, chunki davlat xarajatlari kelajakda to'lanishi kerak bo'lgan qarzlarni oshiradi.

5. Xalqaro yordam va investitsiyalar: O'zbekiston xalqaro hamkorlikdan foydalanib, byudjet taqchilligini kamaytirishga harakat qilmoqda. Xususan, xalqaro moliya tashkilotlari bilan hamkorlikni kuchaytirish.

² <https://lex.uz> 2024-yil uchun "O'zbekiston respublikasi davlat budjet to'g'risida" gi qonun

6. Rejalar va takliflar: Byudjet tizimini isloh etish, xarajatlarni optimallashtirish va daromadlarni oshirish uchun yangi strategiyalar ishlab chiqish zarurati.

7. Ijtimoiy barqarorlik: Ijtimoiy dasturlarga ajratiladigan mablag'larning muhimligi va ularning aholi turmush darajasini yaxshilashdagi roli.

8. Kelajak istiqbollari: Davlat byudjeti bo'yicha rejalashtirilgan islohotlar va iqtisodiyotning diversifikatsiyasi orqali bozorning barqarorligini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar.

O'zbekiston respublikasining 2024-yil uchun Davlat budjeti soliq-budjet siyosatining o'rta muddatli istiqbolga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlarini, mamlakatni rivojlantirishning makroiqtisodiy ko'rsatkichlarini o'z ichiga oladi hamda kelgusi yillarga mo'ljallangan maqsadli ko'rsatkichlarni o'zida aks ettiradi.

O'zbekiston respublikasining asosiy moliyaviy hujjatida, asosan, O'zbekiston 2030 Strategiyasida hamda Barqaror rivojlanish milliy maqsadlarida nazarda tutilgan ustuvor yo'nalishlar va vazifalar hisobga olingan.



1-diagramma. O'zbekiston respublikasining 2023-yildagi byudjet mablag'larining sarflanishi so'falar kesimida.³

³ <https://oz.sputniknews.uz> sayt ma'lumotlaridan foydalanildi

2024- yil uchun byudjet mablag'larining eng ko'p 10 ta mablag'lari qayerga yo'naltirilishi haqida. Prognozga ko'ra, 2024-yilda davlat budjetining daromadlari 270,4 trillion so'mni, davlat maqsadli jamg'armalariga o'tkazmalarni hisobga olgan holda xarajatlar 312,9 trillion so'mni tashkil etadi.

Shu bilan birga, soliq siyosatining asosiy yo'nalishlari belgilanadi, ularga muvofiq asosiy soliq stavkalari o'zgarishsiz qoladi. Davlat maqsadli jamg'armalarining daromadlari va xarajatlari (budjetlararo transfertlardan tashqari) 55,2 trillion so'm va 85,8 trillion so'm miqdorida rejalashtirilgan.

Kelgusi yilda yalpi ichki mahsulotning o'sishi 5,6–5,8 foiz, 2025–2026-yillarda esa mos ravishda 6,2 va 6,4 foiz bo'lishi, o'sish sur'atlari sanoatda 6 foiz, xizmat ko'rsatish sohasida 6,1 foiz, qishloq xo'jaligida 4 foiz bo'lishi prognoz qilingan. Bu ko'rsatkichlarga "har bir sohada boshlangan tarkibiy islohotlarni sifatli davom ettirish" orqali erishilishi kutilmoqda.

1-jadval

1-jadval.O'zbekiston Respublikasining 2024-2026 yillar oralig'idagi sohalar kesimidagi o'sish surati.

T/r	Ko'rsatkichlar	2024-yil prognoz	2025-yil prognoz	2026-yil prognoz
1	Yalpi ichki mahsulot, mlrd so'm	1 301 759	1 540 547	1 725 969
2	Yalpi ichki mahsulot o'sish surati, foizda	5,6-5,8	6,2	6,4
3	Iste'mol narx indeksi	8-10,0	7,5-8,5	5-7,0
4	Sanoat mahsulotlari o'sish surati foizda	6	7,6	7,5
5	Qishloq va o'rmon xo'jaligilarida ishlab chiqarishning o'sishi foizda	4	4,1	4,1
6	Xizmatlarning o'sish surati foizda	6,1	6-6,2	6,7

2024-yilgi davlat budjeti to'g'risidagi qonun loyihasi. Loyihada o'rta muddatli istiqbolga mo'ljallangan soliq-budjet siyosatining asosiy yo'nalishlari keltirib o'tilgan.

Konsolidatsiyalashgan budjet taqchilligi 2024-yilda YAIMning 4 foizi, 2025–2026-yillarda esa YAIMning 3 foizi chegarasida bo‘lishi kutilmoqda. Hozircha hukumat taqchillikni 3 foiz chegarasigacha qisqartira olmadi, garchi bunday maqsad 2022-yildan beri davlat budjetida tasdiqlanib kelinayotgan bo‘lsada.

Bundan tashqari, davlat qarzi yalpi ichki mahsulotga nisbatan 60 foizlik makroiqtisodiy xavfsiz darajadan, o‘rta muddatli istiqbolda esa yalpi ichki mahsulotga nisbatan 50 foizdan oshmasligini ta‘minlash bo‘yicha barcha choralar ko‘riladi.

2-jadval

2-jadval.O‘zbekiston Respublikasining 2024-2026 yillar kesimida davlat budjeti daromadlari va xarajatlari pragnozi.⁴

T/r	Ko'rsatkichlar	2024-yil pragnoz	Mo'ljallar	
			2025-yil	2025-yil
I	Daromadlar	375 047,10	452 563,10	515 980,90
1	Davlat byudjeti	270 322,80	330 600,10	378 600,70
2	Armanistonga kirishning davlat maqsadli	55 350,20	63 921,40	73 222,60
3	O'zbekiston-taraqqiyot strategiyasi	18 871,70	22 750	25 336,80
4	Byudjetning byudjet tashkilotlari tushumlari	30 502,30	35 291,70	38 820,80
II	Xarajatlar	427 549,10	498 290,80	567 578
1	Davlat byudjeti	279 626	323 770,40	376 798,80
2	Jamg'armalar xarajatlari maqsadli	86 822	99 115,80	113 006,50

⁴ <https://www.imv.uz> ma'lumotlaridan foydalanildi

3	O'zbekiston-taraqqiyot Respublikasi moliyaviy xarajatlar	18 848,70	22 750	25 336,80
4	Jamg'armalar moliyalashtirish qimmatli rejalashtirish	30 502,30	35 291,70	38 820,80
5	Xarajatlar davlat kreditini	11 750	17 362,90	13 615

Ushbu maqsad va yo'nalishlardan kelib chiqib, budjetlararo transfertlarni hisobga olmaganda, 2024-yil uchun konsolidatsiyalashgan budjet daromadlari 375,04 trln so'm, xarajatlari 427,55 trln so'm bo'lishi kutilmoqda. budjetning o'zining daromadlari esa 270,3 trln so'mni, xarajatlari 279,6 trln so'mni tashkil etadi.

Xulosa qilib aytganda O'zbekistonda byudjet taqchilligi bir necha omillarga bog'liq:

1.Iqtisodiy o'sish: Mamlakat iqtisodiyotining o'sishi davlat byudjetiga tushumlarni ko'paytirishi mumkin, ammo iqtisodiy qiyinchiliklar yoki global iqtisodiyotdagi o'zgarishlar daromadlarni kamaytirishga olib kelishi mumkin.

2.Xarajatlar oshishi: Ijtimoiy sohalarga, infratuzilma loyihalariga va boshqa muhim sohalarga investitsiyalar qilish zarurati byudjet xarajatlarini oshiradi, natijada taqchillik yuzaga kelishi mumkin.

3.Soliqlar va boshqa tushumlar: Soliq siyosati va boshqa moliyaviy resurslardan foydalanish daromadlarni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Agar soliqlar to'g'ri yig'ilmasa yoki ularning darajasi past bo'lsa, bu byudjet taqchilligiga olib keladi.

4.Global iqtisodiyot: Dunyo bozoridagi narxlarning o'zgarishi, eksport va importning dinamikasi ham O'zbekistonning byudjet manbalariga ta'sir qiladi.

Ayni damda O'zbekiston hukumati byudjet taqchilligini kamaytirish uchun bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda. Bu chora-tadbirlar ichida soliqlarni optimallashtirish, xarajatlarni nazorat qilish hamda davlat dasturlarini samarali amalga oshirish mavjud.

Shu bilan birga, O'zbekistonning moliya vazirligi va boshqa tegishli idoralari tomonidan muntazam ravishda hisobotlar tayyorlanmoqda va ular orqali byudjet taqchilligining holati monitoring qilinmoqda. Ushbu jarayon mamlakat

iqtisodiyotining barqarorligini saqlashga yordam beradi hamda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni rag'batlantiradi.

Umuman olganda, O'zbekistonning byudjet taqchilligini boshqarish muammosi milliy iqtisodiyot uchun dolzarb masala sifatida qolmoqda va uning yechimlari mamlakatning uzoq muddatli rivojlanishini belgilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Burxonov U. Davlat xaridi. T.:«infoCOM.uz». 2010.140b.
2. Vahobov A., Qosimova G. Davlat moliyasini boshqarish. O'quv qo'llanma.- T.:—IQTISOD-MOLIYA. 2008. 260b.
3. Haydarov M., Suvonqulov A., Sugirbaev B., Nurmatov B. Davlat budjeti ijrosining g'aznachilik tizimi. O'quv qo'llanma. T.: "IQTISOD- MOLIYA", 2010.235b.
4. Ibragimov A.K., Sugirbaev B.B. Byudjet nazorati va auditi: O'quv qo'llanma. T.: «infoCOM.uz». 2009.192b
5. <https://lex.uz/docs/-2304138>
6. <https://oz.sputniknews.uz/20231228/ozbekiston-2024-yil-davlat-byudjeti>
7. <https://www.gazeta.uz/oz/2023/11/01/budget-2024/>
8. <https://www.imv.uz/>